

ISSN 2181-7138

# **МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ**



**Илимий-методикалық журнал**

**2024**

**2-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ**



<b>Ibragimova G. R.</b> Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari .....	437
<b>Botirova L.L.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi .....	441
<b>Xamidjonova M.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati .....	446
<b>Jumayev F.A., Raximova L.B.</b> Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'qitilishining didaktik ahamiyati .....	450
<b>Tirkashova Г.Б.</b> Умумталим мактабларида инновацион бошқарув фаолиятининг зарурати ва имкониятлари хусусида .....	453
<b>Nortojiyeva M. Z.</b> O'quvchilarni arifmetik amallar yordamida og'zaki hisoblash usullariga o'rnatish .....	459
<b>Normatova N.K.</b> Adaptivlik tushunchasining mazmuni va mohiyati .....	465
<b>Xo'jaqulov A.E.</b> Possibilities of game activities in the formation of a valuable attitude towards the family in children of the preschool educational organization .....	469

**ТАСВИРИЙ САЪННАТ**

<b>Gulmurodova D.M.</b> Ta'lim tizimida o'quvchilarga rangshunoslik tarixini o'rgatish .....	474
<b>Baymetov B. B.</b> Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini badiiy-ijodiy rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash shartlari .....	479

**ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ**

<b>Abdullaev I.</b> Jas futbolshılardıň texnik-taktik tayarlığın jetilistiriwdiň zamanagóy usilları .....	484
<b>Bobomuradov S .E.</b> Yosh futbolchılarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning vosita va usullari .....	488
<b>Suvonov Q.Yo.</b> Kurash turlari nazariyasi va metodlari tasnifi .....	493
<b>Yoziyeva U.L., Ergasheva N.</b> Sog'gom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari .....	498
<b>Yusupov E. T.</b> Kurash sport turning qoidalari texnika va taktikasi .....	502
<b>Boltabayev Sh. O.</b> Turli toifadagi gandbolchılarning tayangan holda darvozaga to'p otish hujum texnikasi kinematikasini aniqlash va solishtirish .....	507
<b>Xabibullayev S.X.</b> "Yosh futbolchılarning musobaqa va mashg'ulotlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o'rganish" .....	519
<b>Shukurllayev J. M., Murodova R. M.</b> Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash .....	524
<b>Nurmatov F.A.</b> Pedagogik kategoriya sifatida kompetentlilikning mohiyati va uning bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatidagi o'mi .....	528
<b>Арзыбеков Т.</b> Проблемы спортивного отбора .....	534
<b>Арзыбеков Т.</b> Проблема допинга в спорте .....	540
<b>Baylepesov K., Seydaliev S.</b> The bases of command formation in rowing .....	547



## OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINI BADIY-IJODIY RIVOJLANTIRISH VA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH SHARTLARI

**Baymetov B.B.**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti,  
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasи professori*

**Tayanch so'zlar:** rassom-pedagog, kasbiy tayyorgarlik, badiiy ijod, badiiy tafakkur, kompetentlik, badiiy obraz.

**Ключевые слова:** художник-педагог, профессиональная подготовка, художественное творчество, художественное мышление, компетентность, художественный образ.

**Key words:** artist-teacher, professional training, artistic creativity, artistic thinking, competence. artistic image, artistic image.

Bugungi ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti xususiyatlari yangicha fikrlaydigan, mustaqil, harakatchan, ijodkor, tashabbuskor va kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishga intiluvchan mutaxassislarga talabgir. Zamonaviy oliv ta'lif tizimining muhim muammolari orasida yuqorida zikr etilgan kasbiy va maxsus sifatlar, xususan, badiiy ta'lif sohasida muayyan tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tarbiyalash ustivor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik texnika va ta'lif-tarbiya berish bo'yicha pedagogik texnologiyalar emas, balki o'qituvchining bilimdon va ma'naviy ustoz sifatidagi shaxsi masalasi ustivor o'rinni tutishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaralsa, avvalo "o'qituvchini ijodkor sifatida rivojlangan shaxs etib tarbiyalash muammosi ilgari suriladi" [1; 40].

Xususan, professor Larisa Mitina kasbiy rivojlanishni pedagogik mehnatda o'sish, muhim shaxsiy fazilat va qobiliyatlar, ixtisoslikka doir bilim, malaka hamla ko'nikmalarni ro'yobga chiqarish va ularni tanlagan mutaxassisligi bilan uyg'unlashtirish, insonning o'z ichki dunyosini boyitish va shu orqali hayotiy faoliyatiga boshqacha joziba, jilo berish ma'nosida ta'riflaydi.

Faoliyat sub'ektining kasbiy rivojlanishi dinamik jarayon bo'lib, u ixtisoslik bo'yicha olib boriladigan mehnat faoliyatini to'la-to'kis qamrab oladi va muayyan bir davr bilan cheklanmaydi. Kasbiy rivojlanish muammosini o'rganishga qaratilgan



turli yondashuvlarni tahlil qilish uning umumiyligi xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- kasbiy rivojlanish - bu uzoq davom etadigan, kasb sir-asrorlarini o'rganish muddati cheklanmagan, uzlusiz jarayon;
- kasbiy kamolot zamirida o'z ustida ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish tamoyili yotadi;
- kasbiy rivojlanish davomida mehnat sub'ekti sifatida shaxsning muayyan xislatlari o'zgarib boradi va u yetuk muxatassis hamda inson qiyofasini shakllantirishning uzlusiz va izchil jarayoni maqomida kechadi;
- oliy o'quv yurtining kasbga tayyorlash tizimi juda muhim bosqich hisoblanadi va bo'lajak mutaxassisining tanlangan sohasi bo'yicha rivojlanishi o'quv-kasbiy faoliyat jarayonida o'tadi [2;94].

Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'lajak mutaxassislarni badiiy-ijodiy va kasbiy-pedagogik jihatlar bo'yicha tarbiyalashni nazarda tutadi. Biz bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini professional faoliyatga tayyorlashni uning kasbiy kompetentligini yagona psixologik-pedagogik va badiiy-ijodiy yo'nalishlar uyg'unligida shakllantirish sifatida ko'ramiz.

Kasbga badiiy-ijodiy jihatdan tayyorlash muayyan tajribalar orttirishni talab qiladi va ular quyidagilarni shakllantirishga yo'naltirilgan:

- turli davr va xalqlar san'ati nazariyasi va tarixini o'rganishni nazarda tutadigan madaniy-tarixiy kompetentlik;
- san'atning turli sohalariga taalluqli badiiy ifodalash vositalari bilan ishlashni o'rganishdan iborat badiiy-amaliy kompetentlik;
- yuksak ma'naviy-ahloqiy, estetik ideallarga tayangan badiiy did va baholash mezonlarini singdirish.

Mutaxassis kasbiy faoliyati ijodkorlik, yaratuvchanlik bilan bog'liq bo'lgani sababli badiiy tayyorgarlik masalasi ustivor ahamiyat kasb etadi. Biz bu jarayonni tasviriy san'at sohasi bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish, badiiy-ijodiy tafakkur, turli ifodalash vositalari hamda materiallar yordamida badiiy obraz yaratish sohasi bo'yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish sifatida tasavvur qilamiz.

Rassom-pedagog tayyorlashning oliy maqsadi mutaxassisligi bo'yicha badiiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega ijodkor shaxsni shakllantirishdan iborat. Tasviriy savodxonlik esa bu o'rinda rassomning o'z faoliyati mobaynida qo'llaydigan oddiy ish vositasi rolini o'ynaydi xolos. Ta'lim olish jarayonida orttirilgan barcha badiiy-tasviriy malaka va ko'nikmalar yig'indisi badiiy obrazlar yaratish, ya'ni ijodiy jarayonda unumli xizmat qiladi. Ijodkor shaxs maqomiga chiqish kasbiy mahorat sirlarini anglab yetish, tasavvur, badiiy obrazlar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi, bu esa san'at sohasidagi kasbiy tayyorgarlikning majburiy sharti hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini badiiy-ijodiy komillik sari yetaklaydigan eng muhim kompetensiyalar sirasiga, nazarimizda, quyidagilarni kiritish mumkin:



yo‘g‘rilgan bo‘lishi, tasviriy san’at fanlari bo‘yicha o‘tkazilayotgan darslarning talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mashg‘ulotlaridan uzilib qolmasligiga e’tiborli bo‘lish shular jumlasidandir. Xulosa qilish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik talabaning badiiy-ijodiy, pedagogik faoliyati mobaynida o‘zini yaratuvchi sifatida qaytadan kashf etish jarayoni kabi kechadi.

Pedagogik ijodkorlik va kasbiy rivojlanish mutaxassis mahoratini takomillashtirish asnosida kamol topadi. Pedagog shaxsining ijodiy salohiyati orttirgan ijtimoiy tajribasi, psixologiya, pedagogika va bevosita ixtisosligi bo‘yicha olgan bilimlari, yangi g‘oyalari, kutilmagan yechimlar topish va ularni amaliyotda qo‘llash malaka hamda ko‘nikmalari, yaratuvchi va kashfiyotchi ustoz sifatidagi faoliyati, o‘z kasbiy mahoratini sayqallab borish ishtiyoyidan oziqlanadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining mutaxassis maqomida rivojlanishi uchun xizmat qiladigan badiiy-ijodiy tayyorgarligida ijodkorlik alohida o‘rin tutadi. Badiiy-ijodiy faoliyat talabalarning tasviriy vositalarni qunt bilan o‘rganishini nazarda tutadi. Bo‘lajak rassom-pedagogning ijodiy ishlarni baholash layoqati esa uning badiiy tafakkurini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini oshirishda ko‘maklashuvchi samarali usuldir. Ijodiy ishlarni nazorat-baholash faoliyati jarayonida tahlil qilish talaba sa’y-harakatlari, uning maqsadlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy nuqtai nazardan qayta idrok etish, badiiy-ijodiy vazifalar yechimini topish jarayoni talabalarni erkin fikrplash, qaror qabul qilish, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Talabada bu sifatlar yaqqol namoyon bo‘lsa, bu uning ijodiy faoliyatda yordam beradigan o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirilganidan dalolat beradi. Zero, ijodiy faoliyat - o‘quv materiallarini o‘rganishning eng samarali yo‘lidir.

Ijodkorlik darajasini oshirish, kasbiy kompetentlikni yanada takomillashtirishda o‘z-o‘zini baholashning o‘rni beqiyos. Shaxsiy nazorat va o‘zini o‘zi baholash tizimi talaba hamda ta’lim muhiti o‘rtasidagi munosabatlarda muvofiqlashtiruvchi vazifasini o‘taydi. Badiiy-ijodiy ishlarni baholash va tahlil qilish jarayonida talabaning mutaxassis, ijodkor sifatidagi mahorati sayqallanadi va bu borada orttirgan fazilatlari, tajribasi kelgusi pedagogik faoliyatida ko‘makdosh bo‘ladi. Zero, o‘zini o‘zi baholash qobiliyatini kamolga yetkazish - malakali mutaxassis tayyorlashning zarur sharti hisoblanadi.

Baholash bilan muntazam shug‘ullangan, badiiy obrazlar olami bilan bog‘liq ijodiy vazifalarni hal qilish ustida timsiz ish olib borgan talabada o‘z oldiga maqsadlar qo‘yish, ularni amalga oshirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, faoliyat natijalariga tanqidiy ko‘z bilan qarash singari ijodiy jarayon bosqichlari yetilib boradi. Bu esa bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining yangi sifat darajasiga chiqqanidan darak beradi.

Talabalarning badiiy-ijodiy faoliyati natijalarini tizimli tahlil qilish va sifatini baholash o‘z faoliyatini mantiqiy asosga qurish, aql va ko‘ngil talabini uyg‘unlashtirish, badiiy obraz yaratish bo‘yicha vazifalarni muayyan ketma-ketlikda, sovuqqonlik bilan hal qilish, ularni zaruratga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish



qobiliyatini rivojlantiradi, erkin va mustaqil ishslashga undaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada yuksaltiradi. Bu jarayonni, tom ma’noda, ijodiy faoliyat deb atash mumkin, chunki uning zamirida izlanuvchanlik, tanqidiy yondashuv, kuzatish, mantiqiy xulosa chiqarish, lozim bo‘lsa, yangicha qarashdan cho‘chimaslik mavjud.

Xulosa shuki, bo‘lajak pedagog-rassom shaxsini uning badiiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish orqali tarbiyalash bir necha muhim masalalarni o‘z ichiga oladi va ulardan ayrimlarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

- talabalarda baholash kompetentligini rivojlantirish;
- o‘z ustida izlash ehtiyojini tarbiyalash;
- ijodiy refleksiya zehniyatini shakllantirish;
- o‘z ichki imkoniyatlarini kashf qilishda jur’atli bo‘lishga chorlash;
- kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish uchun mehnat qilishga rag‘batlantirish.

Ham rassom, ham pedagog shaxsini o‘zida mujassam etgan mutaxassislarni tayyorlash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagoglik kasbi va badiiy ijodga nisbatan munosabat, tanlangan sohasi bo‘yicha mehnat qilish ishtiyoqi, malaka, ko‘nikma, tajribaga bog‘liq. Albatta, uning dinamikasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan omillar talaygina. Lekin badiiy-ijodiy faoliyatga ongli yondashish, uning natijalariga tanqidiy nigoh bilan qarash, yetuk badiiy didga ega bo‘lish eng muhimlaridir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Baymetov B.B. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning ilmiy nazariy va metodik asoslari. Monografiya, Toshkent.:” ZEBO PRINT”, 2023 yil
2. Baymetov B.B. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning ilmiy nazariy va metodik asoslari. Monografiya, Toshkent.:” ZEBO PRINT”, 2023 yil
3. Художник, Учёный, Педагог. Шорохов Евгений Васильевич; ответственный редактор В.К. Лебёдко. - М., 2005, с. 44.

#### **РЕЗИОМЕ**

Mazkur maqolada bo‘lajak rassom-pedagoglarni kasbiy tayyorlashda ularning badiiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodkor shaxsni shakllantirishda tasviriy san’at sohasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyani, badiiy-ijodiy tafakkur, turli ifodalash vositalari hamda materiallar yordamida badiiy obraz yaratish sohasi bo‘yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

#### **РЕЗИОМЕ**

В данной статье раскрываются вопросы профессиональной подготовки будущих художников-педагогов, развитии их художественных знаний, умений и навыков, формирование творческой личности, профессиональной компетентности в области изобразительного искусства, художественно-творческого мышления, области создание художественного образа с использованием различных выразительных средств и материалов, ориентированных на развитие специальных способностей.

#### **SUMMARY**

This article focuses on the development of artistic knowledge, skills and abilities of future artist-teachers in the process of professional training. Their, professional competence in the field of fine arts, formation of creative personality, artistic and creative thinking, special abilities in the field of fine arts. area of creating an artistic image using various expressive means and materials.